

GEOMORFOLOGIK OMILNING AHOLI JOYLASHUVIGA TA'SIRI

Abduvaliyev Xayitboy Abdug'aniyevich

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida dotsenti v.b., PhD.

Nu'monov Shukurjon Shokirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)
mutaxassisligi II kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyati aholisini joylashuviga geomorfologik omillarning ta'siri va balandlik mintaqalari bo'yicha aholining tarqalganligi o'rganilgan. Hamda, asosli statistik ma'lumotlar asosida Farg'ona viloyatidagi tumanlaridagi aholi joylashuvi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: aholi, hudud, tumanlar, geomorfologiya, aholi joylashuvi

EFFECT OF GEOMORPHOLOGICAL FACTOR ON POPULATION LOCATION

Abduvaliyev Khayitboy Abduganievich

Associate Professor of Geography Department of Fergana State University,
PhD.

Numanov Shukurjon is the son of Shukurjon

Fergana State University, 2nd year magistrate student,
majoring in Geography

Abstract: In this article, the influence of geomorphological factors on the location of the population of Fergana region and the distribution of the population by altitude regions were studied. Also, on the basis of valid statistical data, the location of the population in the districts of Fergana region was analyzed.

Key words: population, territory, districts, geomorphology, population location

Kirish. Yer yuzida aholining joylashuviga eng ko'p ta'sir etuvchi omillardan biri bu geomorfologik omil ekanligi barchaga ma'lum. Aynan yer usti tuzilishi aholi va aholi punktlarining joylashuvini belgilovchi omil bo'lishi bilan birga, hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ham o'z o'rniga ega. Shu maqsadda, aholi joylashuvini tadqiq etishda geomorfologik omilning roliga baho berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada respublikamizning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoiti hamda aholi eng ko'p

to'plangan Farg'ona vodiysida aholi joylashuvining geomorfologik omillari tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar. Farg'ona vodiysi hududida Sirdaryo va uning qayir usti terrasalari vodiyning eng past hududi hisoblanadi. Norin va Qoradaryoning qo'shilishi joyida mutlaq balandlik 393 m ga teng. Qiyalik Sirdaryoning oqimi bo'ylab pasayib borib vodiyaning chiqish joyida 330 m ni tashkil etadi. Bu hududlar hozirda Qoraqalpoq, Markaziy Farg'ona cho'llari rayonini hamda chap qirg'oq Sirdaryo terrasalarini tashkil etadi. Bu landshaft zonasida joylashgan aholi maskanlarining GIS usulida aniqlangan balandliklari Ulug'norda 408 m, Yozyovonda 430, Bo'stonda 433 m, Baliqchida 414 m, Oltinko'lda 445 m ni tashkil etadi. Bu hududlarda relyefning aholi manzilgohlarini tashkil etilishiga u qadar salbiy ta'sir ko'rsatmasa-da, qumli barxanlar va ularning gorizontalar parchalanganligi, pastqam va botiq joylar aholi maskanlarini tashkil etishda hamda u hududlardan ho'jalikda foydalanish uchun ma'lum cheklovlarni keltirib chiqarishini Qizilqum cho'llari misolida ko'rib chiqilgan (3; 17-b.). Relyefda nishablik, qiyalikning yo'qligi ham u qadar qulay hisoblanmaydi, aholi va ishlab chiqarishni, ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi.

Vodiy ma'muriy tumanlarining 23 tasi 400-500 m oralig'idagi hududlarga mos kelishi 1-ilova ma'lumotlaridan ko'rinadi. Shuningdek, aholisi 100 ming kishidan ortiq bo'lgan vodiydagi 5 shaharning (Namangan, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona) 4 tasi shu balandlikda joylashgan. Vodiy maydonining qariyb, 56 foizini 400-500 m li hududlar tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona vodiysi viloyatlari ma'muriy tumanlari markazlarining va shaharlarining dengiz sathidan balandliklari

Balandlik	Qishloq ma'muriy tumanlari	Qishloq ma'muriy tumanlari markazi	Dengiz sathidan balandligi
350-400 m	Mingbuloq	Jumasho'y sh-cha	388 m
	Buvayda	Yangiqo'rg'on sh-cha	390 m
	Beshariq	Beshariq sh.	392 m
	Dang'ara	Dang'ara sh-cha	393 m
	Furqat	Navbahor sh-cha	400 m
400-450 m	Ulug'nor	Oqoltin sh-cha	410 m
	Namangan	Toshbuloq sh-cha	410 m
	Marhamat	Marhamat sh.	412 m
	Uchko'prik	Uchko'prik sh.	413 m
	Qo'qon shahri	Qo'qon shahri	416 m
	Bag'dod	Bag'dod sh-cha	420 m
	Baliqchi	Baliqchi sh - cha	427 m
	Yozyovon	Yozyovon sh-cha	428 m
	Bo'ston	Bo'ston sh-cha	433 m

	Norin	Haqqulobod sh-cha	436 m
	Pop	Pop sh.	442 m
	O'zbekiston	Yaypan sh.	445 m
	Namangan shahri	Namangan shahri	445 m
	Oltinko'l	Oltinko'l sh - cha	447 m
	Qo'shtepa	Langar sh-cha	447 m
450-500 m	Shahrixon	Shaxrixon sh.	452 m
	Andijon	Kuyganyor sh - cha	460 m
	Izboskan	Poytug' sh.	461 m
	Oltiariq	Oltiariq sh-cha	463 m
	Uychi	Uychi sh-cha	470 m
	Rishton	Rishton sh.	477 m
	Toshloq	Toshloq sh-cha	484 m
	Andijon shahri	Andijon shahri	490 m
	Marg'ilon shahri	Marg'ilon shahri	495 m
	Asaka	Asaka sh.	500 m
	Uchqo'rg'on	Uchqo'rg'on sh.	500 m
	Quva	Quva sh.	500 m
500-550 m	Paxtaobod	Paxtaobod sh.	515 m
550-600 m	To'raqo'rg'on	To'raqo'rg'on sh.	554 m
	Farg'ona shahri	Farg'ona shahri	578 m
600-650 m	Buloqboshi	Buloqboshi sh-cha	648 m
650-700 m	Chust	Chust sh.	670 m
	Xo'jaobod	Xo'jaobod sh.	674 m
	Jalaquduq	Oxunboboyev sh.	681 m
700-750 m	Qo'rg'ontepa	Qo'rg'ontepa sh.	708 m
	Chortoq	Chortoq sh.	736 m
750-800 m	Yangiqo'rg'on	Yangiqo'rg'on sh-cha	752 m
	Quvasoy shahri	Quvasoy shahri	828 m
800 m dan baland	Kosonsoy	Kosonsoy sh.	896 m
	Farg'ona	Vodil sh-cha	905 m
	So'x	Ravon sh-cha	1167 m

Jadval www.google.earth.com sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [4].

A.Maqsudovning (1990) ma'lumotlariga ko'ra bu hududda voila landshaftlari shakllanib, tuproqning eng unumdor qoplamlari vujudga keladi. Agroiirrigatsion qatlamning qalinligi mazkur hududlarda aholi yashashi va ishlab chiqarishni rivojlantirishda eng yuqori ball bilan baholanadi. Mazkur hududning quyi chegarasidagi aholi maskanlarining dengiz sathidan balandligi 350-400 m ni (Beshariq 392 m, Navbahor 400 m., Dang'ara 394 m., Buvayda, Bachqir, G'urumsaroy, Jumashuy 388 m.) tashkil etib, mintaqaning yuqori qismidagi shaharlarda dengiz sathidan balandligi 400-650 m. ni (Uchko'prikda 413 m., Bag'dodda 420 m., Yaypanda 445 m., Marg'ilonda 495 m., Asakada 500 m., Uchqo'rg'onida 500 m., Paxtaobodda 515 m., Izboskanda 630 m.) tashkil etadi. Hudud relyefi aholi maskanlari va xo'jalik yuritish uchun qulay bo'lib, yer osti

va yer usti oqar suvlarining harakatiga, transport va qurilish sohasini rivojlantirishga eng qulay hisoblanadi. Fargʻona vodiysidagi dastlabki temir yoʻlining oʻtkazilishi, yirik shaharlarning shu hududda vujudga kelishi hududning eng yuqori koʻrsatkichga ega ekanligini anglatadi.

Navbatdagi adir landshaftlari mintaqasi P.Baratovning (1996) taʼrifi boʻyicha mutlaq balandligi 400-500 m dan 1200 m gacha, ayrim joylarda esa 1500 m gacha boʻlgan, oʻziga xos gipsometrik hududlar boʻlib, hosil boʻlishi jihatdan yosh relyef shakllari hisoblanadi. Hududiy joylanishi jihatdan Fargʻona vodiysining adirlari vodiyni oʻrab olgan togʻlardan keyin ikkinchi halqani hosil qiladi. Hudud relyefining Markaziy Fargʻonaga nisbatan balandligi tufayli yogʻin miqdori ortadi, yozgi harorat choʻlga nisbatan pastroq boʻlib, tipik va toʻq boʻz tuproqlar tarqalgan. Bular esa oʻsimliklarni zich va baland oʻsishiga sabab boʻladi [1].

Adirlarni aholi maskanlarini qurish va yashash nuqtai-nazaridan baholaganda K.Boymirzayevning tasnifi boʻyicha ularni 2 turga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq. Birinchi tur past adirlar 500-800 m, ikkinchi tur yuqori adirlar 900-1200 m gacha ajratadi [2; 8-b.]. Albatta past adirlar relyefi tekis qirlardan iborat boʻlib aholi manzillari tashkil etish uchun qulaydir. Adirlar mintaqasida aholi maskanlari u qadar koʻp boʻlmasa-da, biroq tabiiy resurslardan foydalanishni (neft-gaz va mineral suvlar) kengayishi bilan bu hududda yirik aholi maskanlari vujudga kelgan. Shoʻrsuv, Chimyon, Mindon, Arsif, Polvontosh, Janubiy Olamushuk, Chust, Pop, Kosonsoy, Uychi, Chortoq kabilar shular jumlasidandir. Bu mintaqadagi relyefning parchalanganligi va qiyaqligi aholi hamda xoʻjalikning joylanishiga salbiy taʼsir etuvchi omildir.

Fargʻona vodiysini adirlari va past togʻlari oraligʻida faqatgina ushbu hudud uchun xos boʻlgan adir orti va adir oraligʻi botiqlari landshafti joylashgan. Bu hududlarga Oyim-Xoʻjaobod-Marhamat botigʻi va Shimoliy Fargʻonadagi adir oraliq botiqlarini kiritish mumkin. Relyefning qulayligi adir oldi tekisliklariga oʻxshab ketadi. Biroq, yer osti suvlarining toʻplanib qolishi bu hududlar uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Vodiyning bu hududini 4 ta qismga ajratish mumkin. Bular Olmos-Chust-Varzak adir orti choʻkmasi, Kosonsoy adir orti choʻkmasi, Iskovot-Zarkent-Peshqoʻrgʻon adir orti choʻkmasi va Oyim-Xoʻjaobod-Marhamat adir orti choʻkmasi (2; 8-b.). Mazkur hududlarda Marhamat, Buloqboshi, Kulla, Avval, Logʻon, Sufon, Axcha, Olmos, Varzik, Karnon kabi yirik aholi punktlari mavjud.

Past togʻlar mintaqasi bevosita togʻ oldi tekisliklari va adir oraligʻi botiqlariga ulanib ketadi. Bu zona Fargʻona vodiysining Turkiston, Oloy, Fargʻona, Qurama, Chotqol tizmalarining etaklarini tashkil etib, uncha katta boʻlmagan kengliklarda joylashgan. Ayniqsa, vodiyning janubiy qismidagi togʻ oldi zonasi 30-40 km ni tashkil etadi. Shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarda esa 30-50 km gacha masofalarni egallaydi. Hudud relyefida kuchli parchalanganlik, yonbagʻir yemirilish jarayonlarining faolligi, ularning

etaklarida esa yemirilgan yirik va dag'al jinslarning tartibsiz joylashganligi kuzatiladi.

Xulosa. Bu mintqa aholining yashashi va xo'jalik yuritishi uchun noqulay. Tik relyef shakllari, jarlik va parchalanishlar bu hududda ko'p qiyinchiliklarni tug'diradi. Biroq, daryo vodiylarida yashash uchun qulay sharoitlar vujudga kelgan. Bunday daralarda So'x, Shohimardon, Obshir ota, Vodil, Nanay, Chodak, Kosonsoy, Chorkesar kabi aholi punktlari shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Х. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHO GEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).
2. Abduganiyevich, A. H., & Xasanovna, J. M. (2021). THEORETICAL BASIS OF STUDYING THE TERRITORIAL STRUCTURE OF THE POPULATION ON NATURAL LANDSCAPE OBJECTS. *Thematics Journal of Geography*, 6(1).
3. Abduganiyevich, A. H. (2020). Application Of The Landscape Approach To The Study Of The Population Distribution Of The Fergana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 291-297.
4. Абдувалиев, Х. А. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ. *Научный вестник Наманганского государственного университета*, 2, 255-261.
5. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). TOSHLOQ TUMANI AHOLISI JOYLANISHINING AYRIM MASALALARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 173-176.
6. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 196 б.
7. 2. Боймирзаев К. Фарғона водийси воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. – Т.: Фан, 2007. – 130 б.
8. 3. Тўхтаева Х.Т. Маҳаллий сув манбаларидан рационал фойдаланиш асосида чўлланишга қарши кураш (Марказий Қизилқум мисолида) // Геог. фан. бўй. фал. док. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2019. –142 б.
9. 4. www.google.earth.com